



METAFORIKLIK ULUG‘BEK HAMDAM HIKOYALARINING YETAKCHI XUSUSIYATI SIFATIDA

Sidiqova Shahnoza Kamoliddinovna,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207022>

Annotatsiya. Maqolada Ulug‘bek Hamdam hikoyalarida metaforik tafakkur tarzining yetakchi xususiyat sifatida namoyon bo‘lishi o‘rganilgan. Yozuvchi epik tafakkur tizimida kichik shaklda katta gap aytish mahorati bilan hikoyaning janr imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqqani, bunda hayot voqeligini metaforiklashtirish, poetik timsol tasviri, ramziy ifoda yo‘sini hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi tadqiq qilingan. Shuningdek, ijodkor hikoyalarida motiv, detal, obraz va syujet singari poetik komponentlar metaforik mazmun-mohiyat kasb etib, muallifning ijodiy niyati, badiiy konsepsiyasini yuzaga chiqarishda muhim rol o‘ynagani ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, hikoya syujeti, zamon va makon, xronotop, metaforiklik, karvonsaroy, bozor, orol, qal‘a, pillapoya, yo‘l, tog‘, poetik ko‘chim.

XX asrga kelib o‘zbek hikoyachiligi o‘zining poetik izlanish uslubi rang-barangligi bilan o‘ziga xoslik kasb etmoqda. Yangi asr ijodkorlarining badiiy tafakkur tarzi, voqelikni poetik aks ettirish usuli kichik janr imkoniyatlarini har jihatdan boyitmoqda. Zotan, hikoya kichik janr bo‘lishiga qaramasdan, ulkan epik quvvatni qamrovlab ifodalash potensialiga ega. Qolaversa, ijodkor badiiy mahorati, uning zavqitabiiy tuyg‘ulari har qanday janr kononlarini yangilashi ham bor gap. Shu ma’noda, yangilanayotgan zamonaviy o‘zbek nasrida hikoya janri namunalarining poetik ulushini, ijodiy izlanishlarni, uslubiy xilma-xillikni o‘rganish bugungi adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb muammolardan sanaladi. Shu sabab, mazkur bobda Ulug‘bek Hamdam hikoyalarining mavzu-mundariyasi, syujet qurilishi, uslubiy izlanishlari xususida fikr yuritishga jazm etdik. Yozuvchi nasrida uning hikoyalari markaziy o‘rinda turadi. Negaki, adibning ijodiy potentsiali, poetik izlanishlari katta asarlarining ilk badiiy rejasi kichik janr namunalarida namoyon bo‘ladi. Ijodkor qalamiga mansub “Muvozanat”, “Sabo va Samandar”, “Isyon va itoat”, “Ota”, “Na’matak”, “Yo‘l” “To‘rtko‘cha”, “Yolg‘izlik” singari romanlari va qissasi uning hikoyalariga tayanib tadqiq etilsa, yuqoridagi qarashlar ochiqqlanadi. “Vatan haqida qo‘shiq”, “Uzoqdagi Dilnura”, “To‘lin oy qissasi”, “Yaxshiyam sen borsan” to‘plamlaridan o‘rin olgan hikoyalari adib nasrining poetik fokusi sifatida uslubiy rang-baranglik, ijodiy potensial, shakliy izlanish, majoziy ifoda, ramz tili, voqelikni metaforik idroklash singari xususiyatlarni namoyon qiladi. Qissa va romanlarida

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



yozuvchi ijodiga xos u yoki bu jihatlar bo‘rtib ko‘rinsa, hikoyalarda sintezlashgan tasvir umumlashib badiiy butunlik kasb etadi. Deylik, “Muvozanat” romanida ijtimoiy hayot voqeligi, insonning moddiy va ma’naviy olamidagi nomuvofiqlik; “Yolg‘izlik” qissasida ijodkor meni, subyektiv dunyosi, obyektiv olamga nisbatan isyoni; “Na’matak”da esa, poetik izlanish, ramziy tasvir, metaforiklik yetakchilik qiladi. Yozuvchining “Bir piyola suv”, “Pillapoya”, “Qaytish”, “Safar”, “Unutilgan nay navosi”, “Yaxshiyam sen borsan” hikoyalari o‘zining mazmun-mohiyati, syujet qurilishi, voqelikning metaforik idroklash yo‘sini bilan mushtaraklik kasb etadi. Umuman olganda, U.Hamdami qissa va romanlari syujetining mikromaketi uning hikoyalarda namoyon bo‘ladi. Tush, safar, yolg‘izlik, isyon, ishq-muhabbat, sog‘inch, qaytish kabilar yozuvchi nasrining yetakchi motivi ekanligi hisobga olinsa, masala mohiyati yanada aniqlashadi. Bundan tashqari, yo‘l, bozor, karvonsaroy, qal’a, olis qishloq, shahar xronotoplari tizmasi asarlariga xos syujet tiplarini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Yo‘l va yo‘lovchi, olisda qolgan qishloq hayotini qumsayotgan odam, foniy dunyo mohiyatini o‘zidan axtarayotgan inson, tantilik, jaydarilik qon-qoniga singib ketgan o‘z vatani, oilasi uchun jon olib, jon fido qilishga qodir kishilar obrazlar xatti-harakati, mulohazalari, fikr-o‘ylari hikoya syujeti rivojini, tugun va yechimini qayd qilishga asos bo‘ladi. Shuningdek, adibning munaqqidlik, tarjimonlik, murabbiylik faoliyati uning individual uslubi qolaversa, o‘z davri voqealarining kuzatuvchisi, ayni paytda, ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Rumiya tafakkur tarzi, adabiy jarayonga munaqqid ko‘z qarashi bilan boqish, jamiyatning ilg‘or kishisi sifatida o‘z fikrini erkin bayon qilish, jahon adabiyotidan xabardorlik hissi ijodkor shaxsiyatini, uning uslubini shakllanishida katta ta’sir o‘tkazgan. Mana shularni hisobga olib, mazkur bobning birinchi faslida U.Hamdami hikoyalari syujet qurilishi, ularda metaforiklikning yetakchi ekanligi xususida atroflicha to‘xtalib tadqiq etishni maqsad qildik.

Bugunga qadar ham o‘zbek adabiyotshunosligida yozuvchi hikoyalari turli aspektda tahlil va talqin qilingan. Umarali Normatovning “Kichik janrning katta imkoniyatlari”, Xurshid Do‘stmuhammadning “Hikoyaning takomil yo‘li”, Saodat Kamilovanning “Ulug‘bek Hamdamning yozuvchilik strageyasi”, Rahimjon Rahmatning “Bir yorug‘lik izlaymiz hamon”, Sa‘dullo Qurxonovning “Ifoda va ifodaviylik”, Feruza Burxonovanning “Adabiy-etetik qarash va ijodiy jarayon” nomli ilmiy izlanishlari shular jumlasidandir. Ushbu tadqiqot ishlarining nomidan ham ma’lumki, yozuvchi hikoyalari turli nuqtayi nazardan tahlilga tortilgan. Masalan, birinchilardan bo‘lib U.Normatov U.Hamdami shaxsiyati, uning ijodiy



laboratoriyasi, yozuvchi sifatida shakllanishiga ta'sir qilgan omillar xususida “Kichik janrning katta imkoniyatlari” maqolasida fikr yuritadi. Olim yozadi: “Ko‘nglimdagi daryo”, “Unitilgan nay navosi”, “Ko‘zini ochib yumgan odam”, “Pillapoya”, “Bir og‘iz so‘z”, “Bir piyola suv”, “Musulmon” hikoyalarining har birida romanga arzigulik teran poetik ma‘no mujassam. Janrning kichik jussasi, yelkasiga romanga xos salobatli yuk ortilgan. Eng muhimi, ularda so‘nggi yillar adabiyotimizda, qolaversa jahon adabiyotida ham tansiq bo‘lib turgan o‘zida yuksak ideallarni tashuvchi, idealga intiluvchi qahramonlar bo‘y ko‘rsatayotir”.

X.Do‘stmuhammad o‘zining “Hikoyaning takomil yo‘li” tadqiqotida o‘zbek hikoyachiligining badiiy tadriji, janr tabiati, yangilanish tamoyillari, badiiy tafakkurdagi o‘zgarishlar xususida fikr yuritadi. Shuningdek, U.Hamdamning “Yaxshiyam sen borsan” hikoyasi ham tahlilga tortiladi. Maqola yozuvchining shu nomli hikoyalar to‘plamida muxtasar holda so‘ngso‘z sifatida chop qilingan. Adabiyotshunos hikoya matniga tayanib, uning ma‘no qatlamalarini yoritadi. Olim “Yaxshiyam, sen borsan” mulohaza-hikoya sifatida timsol va ramzlarga boyligini ta’kidlab, shunday yozadi: “Ulug‘bekning ijodiga xos xususiyatlardan biri mana shu, u o‘z o‘quvchisiga taqdim etayotgan mazmun-mohiyatning osongina ochilishini istamaydi, aksincha, uni qatlamlar, pardalar ostiga yashiradi... adibning badiiy tafakkuri inson va dunyo hikmatlari, seyr-u jozibasini timsollar orqali idrok etishga moyil. Tasvir uslubi ham ana o‘sha mulohozakorlikka, o‘ychanlikka, sermushohadalikka mutanosib tarzda shakllangan”.

Shuningdek, adabiyotshunos U.Hamdam hikoyalariga doir ayrim tanqidiy qarashlarni ham bildirib o‘tadi. Bular: hikoya voqealarini qismlarga bo‘lib bayon qilish; syujet kulminatsiyasining passiv va dekarativligi hamda yozuvchi ijodida tush, yo‘l hikoyalar turkumi deb ajratilishi noo‘rin deb topiladi.

Yana bir adabiyotshunos S.Quronov “Postmodernizm olamida manzil izlab” nomli maqolasida yozuvchi qalamiga mansub “Bir piyola suv”, “Lola”, “Safar”, “Pillapoya” hikoyalari yo‘l turkumi tipidagi asarlar sifatida yagona mahrajga olinib, ulardagi o‘ziga xos xususiyatlarga e’tibor qaratiladi. Hikoyalarda personajlarning xaotik xatti-harakati, na boshi, na oxiri bor yo‘l tasviri, ularda yo‘lovchi obrazining tipiklashgan portretiga tayanib, postmodernistik ifoda yo‘siniga xos jihatlar izlanadi. “Yozuvchining so‘nggi hikoyalarini bir turkumga mansub deyish mumkin. Yanada aniqlik kiritsak, men ularni “Yo‘l hikoyalari turkumi” deb atagan bo‘lardim. Chunki har bir hikoya voqealari muayyan YO‘Lda kechadi. Ahamiyatli jihati shundaki, asar

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



syujetida faqat yo‘lning o‘ziga mavjud bo‘lib, hikoyada uning na boshi na oxiri aniq ifodalanadi”.

Ko‘rinadiki, ikki adabiyotshunos tahlilida ham yozuvchi hikoyalardan yangilik izlash ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi hikoyalari tahliliga kirishgan har qanday tadqiqotchi ushbu kichik janr namunalariga poetik izlanishlar natijasi o‘laroq qaraydi. Dunyoqarashi, iste‘dodi va ijodiy niyatiga qarab, izlaganini ham topadi. Bunga yozuvchi hikoyalardagi ramziylik, majoz va metaforiklik yo‘l beradi.

Aytish kerakki, ayni jihat U.Hamdanning aksariyat hikoyalari ham xos deyish mumkin. Ayniqsa, uning “Bir piyola suv”, “Safar”, “Pillapoya”, “Lola”, “Unutilgan nay navosi” asarlari mana shunday hikoyalar sirasiga kiradi. Ushbu hikoyalarda syujet, obraz, detal va motiv kabilar metaforiklashib, umumlashma mohiyat kasb etadi. Hikoyalardagi metaforiklik poetik ko‘chimni kuchaytirib, syujet voqeasi shiddatini pasaytiradi. Hikoya kulminatsiyasi va yechimi passiv xarakterda namoyon bo‘lib, tugun va voqealar rivojiga urg‘u beriladi. Kelish, ketish, yo‘l, safar, tutqinlik, sinov, yolg‘izlik, sog‘inch, tashnalik, muayyan vazifani bajarish singari motivlar metaforik model ichida personajlar xatti-harakati, syujet dinamikasini yuzaga keltiruvchi omil sifatida zohir bo‘lsa, badiiy matn kompozitsiyasi sathida muallif konsepsiyasi, uning ijodiy niyatini ifoda etadi. Yozuvchining bu tipdagi hikoyalari badiiy detal ham metaforik ma‘no kasb etadi. Shuningdek, syujet voqealarini uyushtiruvchi va tutib turuvchi vosita sifatida badiiy funktsiya bajaradi. Ko‘p hollarda bunday tipdagi detallar ayni jihatlari sabab hikoya sarlavhasiga chiqariladi. Yozuvchining “Tosh”, “Bir piyola suv”, “Lola” hikoyalari shular jumlasidandir. Metaforik obraz esa, bu tipdagi hikoyalarning yetakchi xususiyatidan biri sanaladi. Butun hikoyada obrazli tafakkur metaforik qiyofa kasb etib, bir necha ma‘no qatlamlariga ega bo‘ladi. Poetik ko‘chim, assotsiatsiyaga qurilgan bayon, shartlilik va sermulo hazaviylik metaforik obraz tabiatini belgilovchi unsur o‘laroq namoyon bo‘ladi. Bu kabi hikoyalarda qahramon obrazi voqea markaziga qo‘yiladi. Ko‘pincha hikoya voqeasi ham ayni qahramon tilidan bayon qilinadi. “Badiiy obrazga xos muhim xususiyatlardan yana biri metaforiklik sanaladi. Faqat bu o‘rinda “metaforiklik”ni birmuncha keng ma‘noda tushunish, uni “o‘xshashlik” tushunchasining o‘zi bilangina bog‘lab qo‘ymaslik lozim bo‘ladi. Ya‘ni “metaforiklik” deganda badiiy obrazning bir narsa mohiyatini boshqa bir narsa orqali ochishga intilishi, san‘atga xos fikrlash yo‘sini tushuniladi. Chinakam san‘atkor nigohi mohiyatga qaratilgan bo‘lib, u voqelikdagi narsa-hodisalarning barchamizga ko‘rinib turgan tashqi o‘xshashligi emas, bizning nigohimizdan yashirin ichki

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



o‘xshashligiga tayangan holda fikrlaydi. San’atkor biz uchun kutilmagan ichki o‘xshashlikni inkishof etadiki, natijada o‘sha biz bilgan narsa-hodisa ko‘z oldimizda butkul yangicha bir tarzda suratlanadi, o‘zining bizga noayon qirralarini namayon etadi”.

Metoforik obraz hikoya markazida turganda boshqa poetik komponentlar ham shunga muvofiq, ayni badiiy ko‘chim asosida badiiy vazifa bajaradi. Ayniqsa, motiv, detal va syujet unsurlar metoforik obraz suratini chizishda umumlashma mohiyat kasb etishida muhim sanaladi. Bu esa, U.Hamdam hikoyalarida metoforiklikka xos xususiyatlarni yanada teranroq anglashga yordam beradi. Yozuvchi hikoyalarida yo‘lovchi, oshiq, ayol obrazlari ko‘p qirrali umumlashma xarakterga ega. Agar hikoyada obrazlar tizimiga metaforik ma’no yuklansa, o‘z-o‘zidan makon va zamon hamda voqealar bayonigacha poetik ko‘chim ustuvorlik qiladi. Butun hikoya matni metaforik model o‘laroq, yozuvchining g‘oyaviy, badiiy niyatini o‘zida mujassam etadi. U.Hamdam hikoyalarida bozor, karvonsaroy, yo‘l, dengiz, tog‘ xronotoplari metaforik obraz bilan o‘zaro uyg‘unlashib, tashqi va ichki o‘xshashliklar aro cheksiz epik ko‘lamni qamrovlab ifoda etiladi. Masalan, yozuvchining “Bir piyola suv” hikoyasida epik zamon va makon mnimumdan maksimumga qarab shu qadar kengayadiki, bir inson umrining ibtidosidan poyoniga qadar bo‘lgan vaqt oralig‘ini tasvirlashga imkon beradi. Hikoya millati, dini va yoshi noma’lum bir insonning yelkasiga yuklangan vazifani bajarishiga kirishishi bilan boshlanadi. Qahramon yelkasiga yuklangan vazifani bilsa-da, uni kim, qachon, nima uchun yuklaganini bilmasligi, tushuna olmasligi badiiy ritm hosil qilish qatori syujet chizig‘ida tugun yasaydi. Qahramonning xaotik harakati, mavhum manzili tasodif taqdir izmiga havola qilinadi. “Menga vazifa yuklatilgan edi. Biroq aynan nima uchun menga? – Bilmayman. Kim va qanday vaziyatda topshiriq berdi? – Buni ham negadir eslay olmayman. Yodimda qolgani – nimadir ortilgan, ikkita ot qo‘shilgan aravani shom tushgunga qadar manzilga eltishim zarur. Nega endi shomga qadar? Bu savolning javobi qarong‘i...”.

Shu tariqa, inson yelkasidagi oliy vazifa almisoqdan qolgan ot-aravadagi noma’lum narsa hikoyada na qahramon, na o‘qirmanga ayon emasligi bilan e’tiborni o‘ziga tortadi. Hikoya voqeasi qahramon tilidan bayon etilgan bo‘lsa-da, uning ustidan kuzatuvchi, boshqarib turuvchi yana bir roviy borligi oydinlashadi. Bu roviy syujet chizig‘ida ko‘rinmasa-da, voqeadan voqeaga o‘tishda, metaforik obrazlar tizimini uyushtirishda zohir bo‘ladi. Hikoyada yo‘l, safar, tashnalik kabilar karvonsaroy xronotopiga olib boruvchi motivlar hisoblanadi. Hikoya boshida

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



qahramonning safarga o'tlanishi, yelkasidagi vazifani bajarishga bel bog'lashi, yo'lda chanqab tashnalikni qondirish maqsadida karvonsaroyga bosh urib, bir piyola suv ichishi, bu suv to'lovini to'layman deb, butun umrni sarf qilishi qadam-baqadam metaforik so'z va obraz tasviriga tayanib ochiqlanadi. Har bir so'z hikoyada o'zining ikkinchi hayotini yashashi bilan birga, o'zaro uyg'unlashgan holda metaforik ma'no kasb etadi. Ot-arava, bir piyola suv, tabiat tasviri va karvonsaroy singari badiiy detallar mozaikasi qahramon obrazi qismatini u yoki bu qirrasini ochishga xizmat qiladi. Ayni paytda, qahramon tasvirida ham inson obrazining umumlashma qiyofasi yaratiladi. Bu esa, hikoyada metaforiklik fonida yozuvchining g'oyaviy, badiiy niyati, konsepsiyasini ifoda etishda qo'l keladi. Hikoyada voqeadan voqeaga qarab inson shaxsiyati, uning individual xarakteri o'z maqomini yo'qota boradi. Undagi har bir istak, sezim va tutumlar butun insoniyatga xos ularning dunyoga kelishi, berilgan umrni anglab, anglamasdan yashab o'tishi, taqdir chekiga tushgan vazifani bajarishdan chalg'ib, yo'ldan adashgan kimsalar qiyofasi turli o'xshatmalar yordamida poetik ifoda etiladi. Badiiy matn sathida har bir so'z estetik funktsiya bajarishi sabab metaforik tafakkur tarzi yoyilib, butun asar voqeligi yagona obraz atrofida namoyon bo'ladi. Bu esa, hayotdagi muayyan hodisani boshqa bir estetik voqelik orqali inkishof etishga imkon beradi. Hikoyadagi bunday metaforiklik o'quvchi oldiga assotsiativ retsepsiyani ko'ndalang qo'yadi. Har bir so'z qatidagi ko'chma ma'no silsilasi badiiy matn kontekstida umumlashib hikoya syujetining yetakchi xususiyati sifatida namoyon bo'ladi.

Xullas, yozuvchining bu tipdagi hikoyalari syujetida metaforiklikning mavzu ko'lami, uslubiy o'ziga xosligi, psixologik omillari epik qamrovi bilan xilma-xillik kasb etadi. Masalan, "Safar" hikoyasida bashariyat hayoti, "Bir piyola suv"da inson qismati, "Pillapoya"da orzumand odam qiyofasi, uning umr yo'li aks ettiriladi. Uchala hikoyada ham badiiy xronotop orol, karvonsaroy, pillapoya kabilar metaforiklashib tipologik ma'no kasb etadi. Boshqacha aytganda, foniy dunyoning mo'jaz maketi o'laroq poetik vazifa bajaradi. Shuningdek, hikoyalarda motiv, detal, syujet kabi poetik komponentlar metaforiklikni yuzaga keltirish bilan birga, qahramon ruhiyatini ochishda, uning xarakter qirralarini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Safar, yo'l, suv, dengiz, tosh kabilar shular jumlasidandir. Hikoya qahramonidagi bezovtalik, ruhiy iztirob va o'zlikni izlash, mulohazakorlik ayni poetik komponentlar orqali yuzaga chiqariladi. Hikoya syujetidagi bunday metaforiklik hayot haqiqatini, uning turli-tuman puchmoqlarini bor-bo'yicha assotsiatsiya qilishga imkon beradi.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



1. Hikoya U.Hamdami nasrida badiiy mashq maydoni, shakliy va uslubiy izlanishlar maxsul o‘laroq namoyon bo‘ladi. Katta epik asarlarni yaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Yozuvchi epik tafakkur tizimida kichik shaklda katta gap aytish mahorati bilan hikoyaning janr imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Bunda hayot voqeligini metaforiklashtirish, poetik timsol tasviri, ramziy ifoda yo‘sinini hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

3. Hikoyada motiv, detal, obraz va syujet singari poetik komponentlar metaforik mazmun-mohiyat kasb etib, muallifning ijodiy niyati badiiy konsepsiyasini yuzaga chiqarishda muhim rol o‘ynaydi.

4. Hikoya syujetida zamon va makon, qahramon shaxshiyati hamda voqealar tizimi umumlashma xarakter kasb etib, metaforiklikni yuzaga kelishida muhim omil sanaladi. Karvonsaroy, bozor, orol, qal‘a, pillapoya, yo‘l, tog‘ xronotoplari va yo‘lovchi obrazi tasviri poetik ko‘chim tasviri o‘laroq badiiy ma‘no tashiydi.

5. Hikoya syujetida metaforiklik voqea ko‘lamini kengaytirib, poetik assotsiatsiyani yuzaga keltiradi. Bu esa mo‘jaz janrda bashariyat o‘tmishi, inson umri, uning orzu maqsadlarini bor bo‘yicha badiiy aks ettirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Do‘stmuhammad X. Mohiyatni izlayotgan hikoyalar/ Hamdam U. Yaxshiyam, sen borsan. T.: Akademi-nashr, 2023.
2. Hamdam U. Yaxshiyam, sen borsan/ Bir payola suv. T.: Akademi-nashr, 2023.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: Akademi-nashr, 2018.
4. Куронов С. Постмодернизм оламида манзил излаб (мақола) Ифода ва ифодавийлик. – Тошкент: Академи-nashr, 2014.
5. Норматов У. Кичик жанрнинг катта имкониятлари/Хамдам У. Ватан ҳақида қўшиқ. Т.: Академи-nashr, 2014.